

VATANPARVARLIK TARBIYASI YOSHLAR MA'NAVİY HAYOTINI
YUKSALTIRISHNING MUHIM OMILI

Qodirov Samandar Bobir o'g'li
Farg'ona davlat universiteti Harbiy ta'llim fakulteti kursanti

Annotasiya: *Ushbu maqolada Bugungi kunda jamiyatimiz hayotida, kishilarning ongi va qalbida vatanparvarlik g'oyasini shakllantirishda ma'naviy meros va tarixiy xotirani tiklash, uni o'rganish va rivojlantirish zarur. Shu bilan birga jamiyat va davlatda tinchlikni asrab-avaylash, uni qadrlash masalasi ham bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biriga aylandi. Mamlakatimizda hukm surayotgan tinchlik, millatlararo totuvlik, o'zaro hurmat va mehr-oqibat muhitini ko'z qorachig'idek asrash, yosh avlod o'rtasida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini kuchaytirish, Vatan taqdiri uchun yoshlarda mas'uliyat hissini o'stirish kabi masalalari xususida fikrlar bildirilgan.*

Kalit so'zlar: *jamiyat, vatanparvarlik, inson, ijtimoiy-ma'naviy hayot, milliy g'urur, qadriyat, ong, tafakkur, dunyoqarash, mardlik va matonat.*

“Armiyasalarda mardlikvamatonat, vatangasadoqat bilan xizmat qilish maktabini o'tagan navqiron o'g'lolarimiz ishonchli tayanch va suyanch bo'lib xizmat qiladi”.

Mirziyoev.Sh.M.

Ta'kidlash kerakki, vatanparvarlik tushunchasi jamiyatning moddiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega. Vatanparvarlik - bu ona zaminga bo'lgan muxabbat, uni sevish, e'zozlash o'z ona-Vatani uchun jonkuyarlik qilish, uning xalqini sevish, tabiatni, jamiyatniqadrlash, o'z xalqining tarixini bilish, milliy merosini, madaniyati, san'atini, me'morchilik yodgorliklarini asrab avaylash, Vatan oldida mas'uliyatlari bo'lish, foyda keltirish, xalqni o'yash va unga xandarda bo'lishdir. Bugungi kunda jamiyatimiz hayotida, kishilarning ongi va qalbida vatanparvarlik g'oyasini shakllantirishda ma'naviy meros va tarixiy xotirani tiklash, uni o'rganish va rivojlantirish zarur. Shu bilan birga jamiyat va davlatda tinchlikni asrab-avaylash, uni qadrlash masalasi ham bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biriga aylandi. Mamlakatimizda hukm surayotgan tinchlik, millatlararo totuvlik, o'zaro hurmat va mehr-oqibat muhitini ko'z qorachig'idek asrash, yosh avlod o'rtasida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini kuchaytirish, Vatan taqdiri uchun yoshlarda mas'uliyat hissini o'stirish muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda yuksak ma'naviyat, intellektual salohiyat va milliy g'ururni shakllantirish asosiy vazifalardan biridir. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uzlusiz olib boriladigan jarayon hisoblanib, hozirda ushbu masala biz uchun dolzarb ahamiyatga ega. Ma'lumki, vatanparvarlik har-bir davlat hayotining ma'naviy asosi hisoblanib, jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Bu jarayonda birlinchi navbatda fuqarolarda turli zararli ta'sirlarga, salbiy illatlarga qarshi mustahkam immunitetni shakllantirish va Vatanimiz taqdiri uchun mas'uliyat tuyg'usini mutaxkamlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalgalash oshirish muhimdir. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.Mirziyoev ta'kidlaganidek: “Ana

shu murakkab ishda armiya saflarida mardlik va matonat, Vatanga sadoqat bilan hizmat qilish maktabini o'tagan navqiron o'g'lolnlarimiz ishonchli tayanch va suyanch bo'lib hizmat qiladi". Shu ma'noda talaba-yoshlar hayotida Vatan tushunchasi, vatanga sadoqat, vatanparvarlik kabi tushunchalarga bo'lgan yuksak xurmatni shakllantirish talab etiladi. "Vatan" atamasi aslida arabcha so'z bo'lib, ona yurt ma'nosini bildiradi. Vatan tushunchasi keng ma'noda va tor ma'noda xam qo'llanilib, Vatan-bir xalq vakillari jamuljam yashab turgan, ularning ajdodlari azal-azaldan istiqomat qilgan xudud, kishi tug'ulib o'sgan uy, maxalla, qishloq nazarda tutiladi.

Vatan tushunchasi tarix davomida ijtimoiy-iktisodiy taraqqiyot munosabati bilan o'zgarib, kengayib, rivojlanib, boyib kelgan. Masalan ibridoiy jamoa tuzumi sharitida muayaan qabila yashagan joy o'sha qabilaning Vatani sanalgan. Vatan tushunchasi elat, ya'ni xalq va davlat tushunchalarini o'ziga kamrab olgan. Xalqning tili, madaniyati, iktisodiy turmushi, ruhiy, ma'rifiy va ma'naviy ravnaq topa borishi natijasida shu xalqqa mansub kishilar orasida mushtaraklikni yuzaga keltiradi. Xalq bilan millat o'rtasidagi birinchi va birlamchi farqshundaki, millat vakillarida uyushqoqlik jipslik, birdamlik, xamjixatlik maslak va e'tiqodda yagonalik, o'zaro manfaatdorlik bog'liqlik va aloqadorlik bugungi turmush va kelgusi maqsadlarda umumiylit kuchli va kudratli bo'ladi. Kishilik taraqqiyotining bugungi bosqichida ijtimoiy guruxlarning eng yuksak omili bu millatdir. Shunga asosan millat, xalq, Vatan tushunchalarini qadrlash, asrab-avaylash maqsadga muvofiq. Hozirgi talab nuqtai nazaridan yondashilsa, xalq millat deb xisobnalishi uchun boshqa asos va omillardan tashqari xalqaro xuquqning sub'ekti deb tan olingan mustaqil va suveren davlatiga ham ega bo'lishi kerak. Vatan xissi - shu Vatanning egasi bo'lmish xalkni bilishdan, uning qadriga yetishdan, nimalarga qodir bo'lganini tan olishdan, buyukligini e'tirof etishdan boshlanadi. Vatan va xalq egizak, mushtarak tushuncha, birisini xis etish uchun ikkinchisini bilmoq kerak. Vatan xissi - bu uning egasi bo'lmish xalqni sevmok, xurmat qilmoqqadriga yetmok va e'tirof etmoq bo'lib, bu xalqning o'tmishi bugungi va kelajagidir.

Vatan farzandi deb xisoblagan xar bir inson uning moddiy ma'naviy boyliklarini asrab-avaylashi, ularning yanada kupaytirish, rivojlanishi uchun vatanning mudofa qudratini mustaxkamlashga uning xalqaro obru-e'tiborining oshirishga o'ta mas'uliyat bilan o'zining munosib xissasini qo'shib borishi zarur. Vatanparvarlik xalqimiz taraqqiyotini olg'a siljitan ota-bobolarimiz yaratuvchanlik ishining bevosita davomidir. O'zbek vatanparvarligi uning ma'rifatli farzandlari timsolida, qalbida saqlanib kelgan tuyg'udir. Vatanga muxabbat - vatanparvarlikning asl ko'rinishidir. Vatanni qalban chuqur xis qilish uchun xam, xalqning vatanparvarlik namumalarini ko'rsatishi uchun xam xalq xur, vatan mustaqil bo'lishi shart xisoblanadi. Vatan tuyg'usi - bu aziz vatanimizni obod etgan, oddiy kishilarimizning fidokorona mehnatini yodda tutishdir.

Vatan tuyg'usi - bu o'z aql-idrok bilan jaxon sivilizasiyasiga ulkan xissa qo'shgan qomusiy matafakkirlarni yodga olishdir.

Xulosa shundaki kishida vatanparvarlik ruhining rivojlanish darajasi va ko'lami boy tarixiy merosimizni o'rganish, o'zlashtirishga bevosita bog'lik. Bu boradagi ishlarda jamiyatimizdagagi g'oyaviy ta'lif-tarbiya, targ'ibot-tashviqot sohasida hizmat qilayotgan kishilarning nazariy va amaliy faoliyatlari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shuning uchun xalqimiz o'tmishi va hozirgi hayotida yaratilgan ma'naviy-madaniy va g'oyaviy-mafkuraviy qadriyatlardan yurtimizdagagi ta'lif-tarbiya tizimi va ijtimoiy-madaniy tuzilmalardagi turli bosqich, shakl va

yo'nalishlar - oila, maxalla, Vatan, madaniy-ma'rifiy muassalar, san'at, din bilan bog'liq soxalarni chuqur o'rganish, qadrlash, ularni asrab-avaylash xozirgi kunning eng asosiy vazifalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.Mirziyoev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Toshkent 2017 yil.
2. O'zbekiston Respublikasining "Mudofaa to'g'risida"gi Qonuni,
3. O'zbekiston Respublikasining "Umumiylar harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi Qonuni
4. O'zbekiston Respublikasining Yoshlarni vataparvarlik ruhida tarbiyalash Konsepsiysi,
5. O'zbekiston Respublikasining Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik bo'yicha Nizomi,
6. «Shunqorlar» harbiy-sport o'yinlarining Nizomi
7. A.I.Ibragimov, X.X.Sultonov «Vatan tuyg'usi»